




YOG'OCH O'YMAKORLIK SAN'ATI

Razzaqov Baxtiyor Xabibullayevich

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Qadim zamonlardan beri ota-bobolarimiz insoniyat vujudga keltirgan kashfiyot, ilmfan cho'qqilarini egallab, uz hunarlarini avlod-dan-avlodga o'tkazib kelmoqdalar. Yog'ochga naqsh uyish va gul solish san'ati xamisha ardoqlanib kelingan. Xozirgi paytda yog'och o'ymakorligi me'morchilik bilan bir qatorda ruzg'or buyumlariga bezak berishda keng qullanilmoqda. Maxalliy an'analarni avaylab, ardoqlab, ularni yangi mazmun bilan boyitayotgan xalq ustalari, asrlar davomida sayqal topgan qadimiy san'atning etuk namunalarini yaratmoqdalar. Xozirgi kunda arxitektura bilan bog'liq bo'lgan ganch va yog'och o'ymakorligi tobora taraniy etib bormoqda. O'zbekistonda qadimdan me'morchilik va uy-ruzgor buyumlarini bezashda, xalq amaliy san'atining turlaridan biri yog'och o'ymakorligi keng qullanib kelingan. Yog'och o'ymakorligida turli naqsh uslublaridan foydachaniladi. Xap bir usta uzi yashab, ijod etgan erdagi badiiy an'analarning uziga xos tomonlarini ijodida aks ettiradi.

Masalan, xivalik xalq ustalari yog'ochni uyib naqsh ishlashda yog'ochning tabiiyligini saqlab qolganlar, buxorolik ustalar esa naqsh uyib ishlangan buyumlarni jim-jimador qilib, uni oltinsimon va kumushsimon ranglar bilan buyaganlar. Quqonlik xalq ustalari yog'ochni uyib naqsh solishda uni urta chuqurlikda uyganlar, Toshkent xalq ustalari taxta yuzasidagi naqshlarni zaminsiz, chiziqlar orqali bajarganlar va xoshiya naqshlarini ko'p ishlatganlar, Marg'ilon ustalari o'ymakorlik ishlarining zaminini uta chuqur uyganlar. Yog'ochga naqsh uyish va gul solish san'ati xamisha ardoqlanib kelingan. Shu sababli xozirgi paytda yog'och



1.11.1- rasm

o'ymakorligi va naqdoshligi me'morchilik bilan bir qatorda ruzg'or buyumlariga bezak berishda keng qullanilmoqda. Uyma naqdoshlikning ajoyib namunalarini toshkentlik ustalar yasagan eshiklar, buklama shirmalarda, kursichalar, laganlar va boshqa buyumlarda yaqqol ko'ramiz (1.11.1- rasm).

Ustaxonada xavfsizlik texnikasi va yonish xavfsizligi

Yog'och o'ymakorlik ustaxonasi binoning birinchi qavatida joylashishi, unga yorug'lik yaxshi tushib turadigan bo'lishi kerak. Ustaxonaning yarim podval yoki podvalga joylashishi gigienik nuqdai nazardan qatidan man qilinadi. Ustaxona uchun quyiladigan maxsus





talablardan biri unga tabiiy yorug'lik yaxshi tushishi, xona isitilishi va shamollatilishi kerak. Eng muximi, ustaxonada xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilish kerak. Ustaxonada yog'in xavfsizligiga aloxida e'tibor berish lozim. Chunki yog'ochdan chiqqan qirindilar tez yonadi. Shuning uchun elektr isitgach asboblari, elektr plitalarga maxsus belgilangan joy bo'lishi lozim. Ustaxona ut o'chirish inventarlari bilan jixozlanishi va bunda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

1. Ish boshlashdan oldin ish kiyimlarini to'g'ri kiyib, ularning tugmalarini taqib olish.
2. Ishlayotganda kerakli yog'ochni dastgoxga mazxkamlib, uning mustahkamligini tekshirib kurish.
3. Kesuvchi asboblarning tig'i o'tkir yoki o'tmasligini tekshirish.
4. Arra bilan ishlaganda gaplashmasdan, xushyorlik bilan ishlash.
5. Randa bilan ishlaganda randaning sozligini tekshirish.

Yelim tayyorlashda, uni eritishda elektr asboblaridan extiyotkorlik bilan foyda-sh. Ishdan keyin qolgan materiallar va tugatilmagan ishlarni navbatchiga topshirish. Asboblarni artib, tozalab joyiga quyish.

Ish dastgohlarini qirindi-payraxalardan tozalashda maxsus chutkalardan foyda-sh.


Ustaxonalarda medisina aptechkalari bo'lishi shart. Agar biron o'quvchining qo'li kesuvchi asboblari bilan jaroxatlanib, qon ketayotgan bulsa, uni to'xtatish uchun jaroxatlangan joyning yuqori qismidan bog'lab qo'yish va uni tezda yaqin oradagi tibbiy yordam ko'rsatish bo'limiga olib borish lozim.

Oddiy naqsh elementlarini qog'ozga chizish

Naqsh elementlarini chizishdan oldin quyidagi materiallarni tayyorlash kerak.

1. Yarim vatman qog'ozdan tayyorlangan albom.
2. "M" markali qora qalam, yumshoq uchirg'ich, qalamtarosh.
3. Tug'ri va uchburchakli chizg'ichlar.

Naqsh chizish ishlari asosan naqsh elementlaridan, eng oddiy nusxa kuchirishdan boshlanadi. Uquvchilar qog'ozda tug'ri va chiroyli chiziq o'tkazishni o'rganishlari, chizilgan chiziqning aniq va ravonliga erishishlari kerak. Bog'dodi uslubida o'yiladigan naqshlarning ko'pchiligi geometrik shakllardan tuzilgan bo'lib, buyumlarning yuziga pardozsiz, sayoz qilib o'yiladi. Bog'dodi uslubidagi naqshlar darvoza yondorlarini bezatishda ishlatiladi. Bu naqshlar "zanjira" deb ataladi, Demak eng oldin sodda zanjira naqshlarni qog'ozga chizib o'rganamiz. Jumladan zanjira naqshini chizish uchun eni 3 sm, uzunliga 20—25 sm bulgan yul chiziq o'tkazilib, ichiga teng tomonli uchburchaklar chizib chiqiladi. Uchburchakning uchlaridan tomonlariga tik chiziqlar tushiriladi, bu chiziqlarning kesishgan joyi uchburchakning markazi bo'ladi. Markazni uchburchak uchlari bilan birlashtirsak, zanjira naqshining bir elementi xosil bo'ladi. Bu elementni yo'l chiziq bo'ylab davom ettirsak, to'la zanjira xosil bo'ladi. Zanjira naqshlarini tug'ri turtburchak, kvadrat shakllardan tuzish mumkin.





Yog'och buyumlarga ishlanadigan naqshlar tugri chiziq, yarim aylana va aylanalardan tashkil topadi. Naqsh ishlashda ularni teng bulaklarga bo'lish lozim bo'ladi. Shu sababli o'quvchilar nakshni ishlashda bunday ishlarni mukammal bajaradigan bo'lishlari kerak.

Tug'ri chiziqni teng bo'laklarga bo'lish. Tug'ri, og'ma va tik chiziqgarni ko'z bilan chamalab bo'lish kupincha geometrik shakldan tuzilgan naqshlar ishlashda qo'llaniladi.

Aylanani teng bo'laklarga bo'lish. Pargar (sirkul) bilan ishlanadigan naqshlarda aylanani 4 ga, 5 ga, 6 ga bo'lib, turli naqshlar chiziladi.

Doira ichiga chizilgan bu naqshlar bir xil elementlardan tarkib topgan bo'lib, tug'ri va egri chiik, bo'ylab takrorlanib turadigan ornamental lentalar, frizlardan iborat.

Oddiy elementlardan (oygul, barg, lola, xoshiya elementlaridan) naqsh chizish. Naqsh gullarining eng oddiyi kichik aylana gul bo'lib, "Kichik oygul" deb ataladi. Kichik oygulning xar bir aylanasi to'rt-besh bo'lakka bo'linadi. Bu gulning chetiga ikki qavat qilib, katta ulchamda olti, sakkiz aylanadan iborat qilib chizilsa, "Kichik oygul" xosil bo'ladi.

Mustaqil naqsh ishlash naqshni bulaklarga ajratib chizishdan boshlanadi. Jumladan gul elementa, barg elementa, yuqorida chizilgan oygul xam shunga misol bo'la oladi.

Barg elementlari bir bargli, uch bargli va olti bargli bo'ladi. Bir bargli elementni chizishdan ko'nikma xosil qilingandan so'ng murakkabroq — uch va olti barglarni chizishga kirishiladi. Uch bargli naqsh xuddi paxtaning chanog'iga uxshaydi.

Lola tasviridan turlicha naqsh chizishda foydalanish mumkin. Lola tasvirining bosqichma-bosqich chizilgan oxirgi nusxasi "Modohili" naqshiga o'xshab ketadi. Bir xil elementlardan tarkib topgan, ma'lum tartibda chiziq bo'ylab takrorlanib turadigan naqshlar "Turunj" naqshlar deb ataladi.

Xoshiya elementlaridan chizilgan naqshlar "Chizma naqshlar" deb ataladi va ular odatda bog'dodi eshiklarning chetlariga, peshburunga ishlatiladi. Ular "Ishkomcha xalqacha" deb ataladi. Ishkomcha naqsh novi iskana yordamida o'yilib, bog'dodi naqshlarning atrofini bezatishda iplatiladi. Chetlari bog'dodi uslubida o'yilgan eshik va jovonlarning atrofini bezatishda "Xalqacha" xoshiyalar ishlatiladi.

O'yma naqshlar asosan yumshoq baqaterak yoki arg'uvon daraxtidan tayyorlangan taxtaga o'yiladi. Buxoro, Toshkent, Samarqand ustalari geometrik shaklda o'yilgan naqshlarni bog'dodi deb atashadi. Bog'dodi uslubidagi naqshlar darvoza yondorlari, tepa cho'plarni bezatishda ishlatiladi.

Oddiy naqsh namunalarini chizish. Naqsh chizish faoliyati asosan naqsh elementlaridan, eng oddiy nusxa ko'chirishdan boshlanadi. O'quvchilar qog'ozga tug'ri va chiroyli chiziq o'tkazishni o'rganishlari, chizilgan chiziqning aniq va ravonligiga erishishlari kerak. Yogochga mustaqil naqsh ishlash esa dastlab naqshni bulaklarga ajratib chizishdan boshlanadi. Masalan, barg elementi, gul elementa, bofta shkifti va boshqalar. Yog'och o'ymakorligida keng qo'llaniladigan zanjira, islami, raftori, girix, madohil, turunj naqshlar yuqoridagi elementlardan xosil bo'ladi. Zanjira. Uning oddiy naqsh namunalari geometrik va o'simliksimon shakllarda uchraydi. Geometrik shakldagi zanjira naqshni elementlarni uzluksiz davom ettirish natijasida xosil bo'ladi. Zanjira gul eni 3 sm dan ortiq bo'lmagan





karnizlarga ishlatiladi. O'simliksimon zanjira naqshi yarim aylanalardan tashkil topgan bo'lib, yul ichiga chiziladi. Ularni xam uzluksiz davom ettirish natijasida usimliksimon "zanjira" gul xosil bo'ladi. Bofta. Bu gullari simmetrik naqshlar turiga kirib, tuzilishiga kura uchli, oysimon, siniq. chizikli bo'ladi. Bofta gullar naqsh yullarini bir-biriga bog'lashda ishlatiladi. Boftalarni aylana shaklida va tug'ri chiziq ichiga chizish xam mumkin. Bofta qatnashmagan naqshlar ko'rimsiz bo'lib, kishini o'ziga jalb qilmaydi.

Gulli raftori. O'simliksimon naqshlar birmuncha murakkab bo'lib, o'simlik qismlariga o'xshash naqsh elementlaridan tashkil topadi. Xar bir naqshning nomi asosiy naqsh qiluvchi elementdan olinadi. O'simliksimon naqshlar "Islimi gullar" deb ataladi. Islimi gullar o'z navbatida, ikki tomonga ulanadigan ko'rinishda bo'ladi.

Bargli raftori. Islimi gullar yullari va tuzilishiga qarab yak raftori, du raftori, gulli raftori, barg elementlaridan tuzilgan bulsa, bargli raftori deb ataladi.

Aylana islimi. Islimi gullar aylanadan tuzilgan bulsa "aylana islimi" deb ataladi. Boftali islimi. Boftali islimilar bofta elementining stillashtirib olingan turlaridan tashkil topadi.

Bargli islimi. Bargli islimilardan tuzilgan naqshlar o'z ichiga oygul elementlaridan qabul qilib, yanada kurkam va chiroyli ko'rinishga ega bo'ladi. Bargli islimi tasvirlangan naqshlarda oygul elementi xam mavjud bo'ladi.

Meefoblr islimi. Meerobli islimilar bir tomonga, ya'ni govori tomonga usib boruvchi islimi guldir, mezerobli islimi tasvirlangan.

Patnus gul islimi. Patnus gulli islimi chizma naqshining tuzilishiga o'xshash bo'lib, maxsus chegaralangan buyumlar yuzasiga kuvachaga uxshash shaklda chiziladi. Bu naqsh chizg'ich va pargar yordamisiz qul bilan chiziladi.

Turunj islimi. Vir xil elementlardan tarkib topgan tug'ri va eg'ri chiziq bo'ylab ma'lum tartibda takrorlanib turadigan naqshlar "Turunj" islimi deb ataladi.

O'ymakorlikda ishlatiladigan yogochlarning uziga xos xususiyatlari.

Yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan yog'ochlarni butun yil buyi tayyorlash mumkin. Lekin yog'ochlarni daraxtlardan suvi qochgan vaqtda, ya'ni oktyabr, noyabr oylarida tayyorlash yaxshi natija beradi. Kesilgan daraxt uzoq saqlanganda chirimasligi va qurt emasligi uchun uning po'stlog'ini shilish va soya xamda shamol tegadigan joyda saqlash lozim. Yog'ochlarni ishlatish oldidan etibor bilan tanlash va

xillash kerak. Buralgan, serbutoq yog'ochlarni olmaslik lozim, chunki ulardan yasalgan buyumlar sifatsiz chiqadi. Xul taxtani ishlash quruq taxtaga qaraganda birmuncha qiyin. Nam taxtalar ko'pincha ish jarayonida nami qochib qiyshayishi mumkin. Shuning uchun mebel, o'yma buyumlar yasashda ishlatiladigan yog'och materiallar quriq bo'lishi shart. O'quvchilar qilinadigan ishning katta-kichikligiga qarab, yog'och materiallarni, fanerlarni xillab olishlari lozim. Materiallarni xillab olish tayyorlanadigan buyumning sifatli chiqishini ta'minlaydi. Ishlatiladigan yog'och materiallar yaxshi qurilgan bo'lsa, tob tashlab buralish, natijasida darz ketish xollari yuz bermaydi.

Naqsh uyilishi kerak bulgan buyumni dastgoxga o'rnatish. Naqsh o'yilishi kerak bo'lgan buyumni yaxlit xolda dastgoxga o'rnatish birmuncha qiyin. Shu sababli uni qismlarga ajratib





uyish oson va qulaydir. O'yiladigan buyum qismlarini maxsus burama qisqichlar bilan dastgoh ustiga qimirlamaydigan qilib o'rnatiladi. Buyum yuziga naqsh tushirishdan oldin buyum yuzini yumshatish uchun paxta moyi surtiladi. O'yish vaqtida esa iskana uchi sovunga tegizib olinadi, shunda iskana ravon kesadi.

Yog'och o'ymakorligi san'atining ajoyib xususiyatlaridan biri shundaki, o'ymakor usta ikki qo'li bilan ishlaydi. Iskana qalamni chap qo'lga ushlab, ung qo'li bilan bolg'ani tutib, iskana dastasiga urib, nak.shni kesadi. Uzbekistonda ishlatiladigan o'yma naqshlarning chuqurligi 2 mm dan 15 mm gacha boradi.

Toshkent, Buxoro, Quqon, Samarkand o'ymakor ustalari buyumlarning o'yilgan zaminini chekma uslubida maxsus chakich iskana qalam bilan chaqichlab chiqadilar.

Xiva ustalari naqsh zaminini chakichlamasdan tekisligicha qoldiradilar. Xiva ustalari o'yib tayyorlagan buyumlarning yuziga qizdirilgan chigit yog'i surtadilar. Bunda buyumning namga va issiq-sovuqqa chidamliligi oshadi. Ikkinchidan chigit yogi naqsh yuzini qoramtir qqilib ko'rsatadi. Toshkent, Samarkand va Quqon ustalari esa tayyor buyumlarni maxsus lak bilan qoplaydilar.

Yog'ochga naqsh uyishda ishlatiladigan yordamchi asbob va moslamalar

Yog'och o'ymakorligi uchun asosiy material yog'ochlardan tashqari, yordamchi asboblardan va moslamalar kerak bo'ladi.

Knopka — naqshni buyumning yuziga tushirishda shildiroq qog'oz siljimasligi uchun uni maxkamlab qo'yishda ishlatiladi.

Buyum yuziga gul tushirish uchun ulchov asboblari: chizgich, pargar, qalam kabilardan foydalaniladi.

Moslamalardan jilvir qog'oz, mayin yassi egovlar ishlatiladi. Jilvir donlarining yirik-maydaligiga qarab qo'yidagicha nomerlanadi: 120—280 gacha bo'lib, nomerlar ortib borishi bilan donalari maydalashib boradi, 120—140 nomerlilari mayda donali jilvir deyiladi.

Esdalik sovg'alarning shakllariga mos naqsh chizish. Yog'och o'ymakorligi san'atining rivojlanishi va o'yilgan buyumlarning xalq orasida ko'plab tarqatib ishlab chiqariladigan mahsulotning tuzilish jixatidan tannarxiga bog'liqdir. O'yma buyumlarni xalqishiz bemaol olish uchun ularning tannarxi arzon, sifati xam yaxshi bo'lishi kerak. Shunday shartlarni xar bir o'ymakor usta yaxshi bilishi lozim. Bu esa ishni tug'ri tashkil qilishni, o'yma buyumlarning yangi-yangi nusxalachrini yaratishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Раззаков, Б. Х. (2022). ОЛИЙ ТАЪЛИМДА ТЕХНОЛОГИЯ ФАНИ УКТУВЧИЛАРИНИНГ КАСБ МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. PEDAGOGS jurnali, 18(1), 203-208.





2.Раззаков, Б. Х. (2022). ОЛИЙ ТАЪЛИМДА ТЕХНОЛОГИЯ ФАНИ УКТУВЧИЛАРИНИНГ КАСБ МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. PEDAGOGS jurnali, 18(1), 203-208.

3.Daniyarovich, R. B. X. Y. I. (2022). MILLIY OQUV DASTURI ASOSIDA INNOVATSION KASBGA YONALTIRISH. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(20), 86-89.

4.Daniyarovich, R. B. X. Y. I. (2022). MILLIY OQUV DASTURI ASOSIDA INNOVATSION KASBGA YONALTIRISH. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(20), 86-89.

5.Khabibullaevich, R. B. (2022). The Importance of Teaching Folk Crafts to Teachers of Technological Education in the Educational Process. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 9, 118-120.

6.Khabibullaevich, R. B. (2022). The Importance of Teaching Folk Crafts to Teachers of Technological Education in the Educational Process. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 9, 118-120.

1. B.X.Razzoqov “ Texnologiya ” fani darslarida o’quvchilar kreativ sifatlarini rivojlantirish texnologiyasi // “Umumiy o’rta ta’lim maktablarida texnologiya fanini o’qitishning muammolari va yechimlari” mavzusidagi Respublika onlayn ilmiy-texnikaviy anjumani materiallari | Qo’qon 2020-yil 18-noyabr № 98. – p. 84-88.

2. B.X.Razzoqov Milliy qadryatlar vositasida bo’lajak o’qituvchilarning kasb madaniyatini shakllantirish // “ Mug’allim hem uzliksiz bilimlendirio’ ” Ilmiy-metodik jurnali; № 3/3 ISSN : 2181-7138; Nukus-2021, betlar (51-53).

3. B.X.Razzoqov Milliy qadryatlar vositasida bo’lajak o’qituvchilarning kasb madaniyatini shakllantirish tizimi // “Zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirish va unga qaratilgan kreativ g’oyalar, takliflar va unga yechimlar” mavzusidagi 37-sonli Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi / “BEST PUBLICATION” ilmiy-ma’rifat markazi; 15-may, 2022-yil 37-son 2-qism.

4. B.X.Razzoqov Future Technological Education Developing Professional Skills for Teachers // In Volume 7 of Texas Journal of Multidisciplinary Students. / Editor Zien Journals //, № 3, April, 2022 Part ISSN Online: 2770-0003 SJIF 2022: 5.909.

5. B.X.Razzoqov The System Of Formation Of professional Culture Of Teachers Of Future Technological Education Through national Values // Journal of Positive School Psychology. 2022, Vol.6, No.4, 1659-1665 – ISSN 2717-7564, Frequency: 2 issues/year & 1 Aditional issue, indexing: Scopus, EBSCO.

6. B.X.Razzoqov “Milliy qadryatlar asosida xalq hunarmandchiligini rivojlantirish” // “ Mug’allim hem uzliksiz bilimlendirio’ ” Ilmiy-metodik jurnali; № 2/1 – 2022 yil; ISSN 2181-7138; betlar (107-109).

7. B.X.Razzoqov “Дизайна электронных учебных пособий для студентов вузов”. // Samarqand viloyati innovatsion rivojlantirish Muammo va yechimlar respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Samarqand, 2020. Стр 373-376

8. B.X.Razzoqov “CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF ARTISTIC CREATIVES OF





STUDENTS IN TECHNOLOGY” // ELECTRONIC JOURNAL OF ACTUAL PROBLEMS OF MODERN SCIENCE, EDUCATION AND TRAINING. DECEMBER, 2020-VI. – ISSN 2181-9750; Стр 68-73; UDC: 378.1

9. B.X.Razzoqov Maktabgacha Bolalarni jismoniy rivojlanishi va salomatligining gradiyentlari// „ Maktabgacha va Boshlang'ich ta'limning dolzarb masalalari:muammo, yechimlar va rivojlanish istiqbollari“ mavzusidagi Xalqaro Ilmiy-amaliy onlayn anjumanida. 2020–Farg'ona, FarDU ilmiy metodik jurnal. Betlar 164-167

10. B.X.Razzoqov Профориентфция сеудентов на основе национальной программы // SCIENCE AND WORLD international scientific journal / № 11 (99), 2021. – ISSN 2308-4804.

11. B.X.Razzoqov Развитие профессиональной компетентности студентов в обучении рискам и оценке рисков // научный журнал Universum: психология и образование. – Москва, 2021. - № 5(83) – ISSN : 2311-6099

12. B.X.Razzoqov “ Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etish“ // Опубликована в международном научном журнале “Вестник науки”. – №12 (45) т. 3, г. Тольятти, от 19 декабря 2021 г; ISSN: 2712-8849; Sayt:www.vestnik-nauki.pф; email: vestnik-nauk@ya.ru; УДК 1.

13. B.X.Razzoqov “Bo'lajak Texnologik ta'lim o'qituvchilarini kasb maxoratini shakillantirishda kreativlik”// Опубликована в международном научном журнале “Вестник науки”. – № 2 (47) т. 2, г. Толятии от 13 февраля 2022 г; ISSN: 2712-8849; Sayt:www.vestnik-nauki.pф; email: vestnik-nauk@ya.ru; УДК 37.

14. B.X.Razzoqov Milliy o'quv dasturi asosida innovatsion kasbga yo'naltirish // “IJODKOR O'QITUVCHI JO'RNALI”. 30-iyun|2022-yil|20-son; SJIF:4.833, 2022 impact factor; ISSN : 2181-2330;

15. B.X.Razzoqov The Importance of Teaching Folk Crafts to Teachers of Technological Education in the Educational Process // Journal of Pedagogical Inventions and Practices / sayt: <https://zienjournals.com> ; SJIF 2022: 5.517; ISSN NO: 2770-2367, Data of Publication: 18-06-2022; betlar: (118-120).

16. B.X.Razzoqov SPECIFICITY OF THE TYPE OF WOODWORKING IN FOLK APPLIED DECORATIVE ART // GALAXY INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) / ISSN (E): 2347-6915; SJIF Impact Factor (2022): 7.718.

